

## VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA SUITSIDAL HOLATLARNI OLDINI OLISH

**Alimbekova Madina Abrorovna**

303-IDUM psixolog

99899 837-53-87

alimbekovamadina744@gmail.com

**Annotatsiya:** Maqola voyaga yetmaganlar o'rtasida suitsidal holatlarni oldini olish mavzusida bo'lib, unda voyaga yetmagan yoshlarga maslahatlar va oilada, maktablarda bunday yoshlar bilan qanday ishlash kerakligi haqida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** suitsidal, voyaga yetmagan, tushkunlik, kayfiyat, suitsid, deviant xula

**Аннотация:** Статья посвящена теме профилактики суицидальных ситуаций среди несовершеннолетних, содержит советы несовершеннолетним и способы работы с такими подростками в семье и школе.

**Ключевые слова:** суициdalный, юношеский, депрессия, настроение, суициdalный, девиантное поведение

**Abstract:** The article is on the topic of prevention of suicidal situations among minors, it contains advice for minors and how to work with such young people in the family and schools.

**Key words:** suicidal, juvenile, depression, mood, suicidal, deviant behavior

Psixologik tadqiqotlarda suitsidal urinishga aynan qaysi noto'g'ri tarbiyaviy ta'sir yoki deviant xulq ko'rinishlari sabab bo'lganligi to'liq aniqlanmagan. Shu bois suitsidal faoliik rivojlanish xavfi mavjud guruhlarga taalluqli bo'lgan pedagogik-psixologik korreksion dasturlar kompleksi ishlab chiqilishi zarur.

Ma'lumki, shaxs ma'naviy kamolotida oilaviy tarbiyaning o'mni beqiyos. Oilaning bolalarga tarbiyaviy ta'sir doirasi ijtimoiy ta'sir doirasi singari o'ta kengdir. Biroq keyingi paytda oilada farzandlar tarbiyasida, ularni kamol toptirishda bir qator muammolarga duch kelinmoqda. Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi salbiy munosabatlar bolalarda xulq og'ishi hamda psixosomatik kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Shaxsning og'ishgan hulqi yoki deviant ahloq (Voyaga yetmaganlar orasidagi suitsid bo'yicha yosh guruhlaridagi suitsid darajasidan yuqoriyoq, bo'lgani tufayli unga alohida e'tibor qaratiladi. U, odatda, bir qator ijtimoiy, psixologik

sabablar tufayli yuzaga keladi. Yosh yigit va qizlar erta yoshda xayotdan ko'z yumayotgani tufayli bu tadqiqotchilarni ham tobora ko'proq o'yantirayapti.

Yangi narsalarni o'rgana boshlagan va hamma narsaga qiziqishi ortib borayotgan o'spirinni xayot yo'li endigina boshlagan davrida bu kabi mash'um qadamga nima undayotgani ko'pchilik uchun tushunarsiz bo'lib qolmoqda. O'z joniga qasd qilayotgan odamlar odatda kuchli ruhiy og'riqdan, kuchli depressiyadan aziyat chekadilar va stress holatida bo'ladilar hamda kelajakka umidsizlik bilan qaraydilar. Ular o'z muammolarini yengish imkoniyatidan maxrum ekanliklarini his qiladilar. Suitsidni davolash olimlar oldiga bir qator murakkab masalalarni qo'ymoqda. Hali o'z joniga qasd qilishga moyilligi bo'lgan o'smirlar uchun muvaffaqiyatli terapiya usullarini ishlab chiqish dolzarbligicha qolmoqda.

Suidsidning oldini olish bo'yicha bir qator psixologik, terapeutik dasturlar ishlab chiqilgan, ammo bunday dasturlar real voqelikda umumiyl xavf omillari va o'smirlar orasida o'z joniga qasd qilish darajasini qanday qilib kamaytirishi mumkinligi noaniqligicha qolmoqda. Shu bilan birga, suitsidga oid tadqiqotlar sonining doimiy ravishda ko'payib borayotgani bu muammoning yechimi topilishiga umid beradi. Balki endilikda olimlar bu muammolarni hal qilishga butun jamiyatni jalb qilishlari hammasidan muhimroqdir. Bunday muhit suitsidni to'laroq tushunishga yordam berishi hamda olimlar va maslahatchilar aralashuvi yanada muvaffaqiyatliroq bo'lishini taxmin qilish mumkin. Mohiyatan suitsid yolg'iz qolgan va tushkunlikka tushgan odamning xatti-xarakati bo'lib hisoblanishiga qaramay, bunday xatti-xarakat aslida jamiyatga va ayniqsa, o'smirlarning tez ta'sirlanuvchi ruhiyatiga katta ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun ham bu yerda o'smir-deviantlar bilan ishlashda turli texnologiyalardan foydalanish juda muhim.

Suitsid - maqsadli ravishda o'zini xayotdan maxrum qilish, odatda, ixtiyoriy va mustaqil ravishda o'z joniga qasd qilish. Suitsid axloqiy, sotsiologik, falsafiy, diniy, madaniy, psixologik, tibbiy aspektlarga ega murakkab ijtimoiy (fenomen) xodisadir. Suitsidga mukammal ta'rifni fransuz sotsiolog Emil Dyurkgeym bergan. Uning talqini bo'yicha, shaxs tomonidan o'zini kutayotgan natija haqida bila turib, sodir qilishga salbiy xatti-xarakatning bevosita yoki bilvosita natijasi bo'lmish xar bir o'lim holati o'z joniga qasd qilishsir. (Emil Dyurkgeymning 1897 yilda nashr etilgan «Suiqasd» asari suitsidga oid adabiyotning klassik namunasidir. Ushbu asarda olim mavjud statistik ma'lumotlarga tayanib suiqasd nafaqat psixologik muammo, balki ijtimoiy ildizga ega xatar ekanligini isbotlagan). O'z joniga qasd qilish

jamiyatda, odamlar orasidagi munosabatlarda inson o'zi yecha olmagan yoki odatiy, hammaga ma'qul bo'lgan yo'l orqali yechishni istamagan muammolar borligidan, shaxsiy musibat, umidsizlik va tushkunlik bilan bog'liq tashvish mavjudligidan darak beradi. O'z joniga qasd qilishga ko'pincha uzoq davom etadigan kasallik, ba'zan esa nogironlik ham sabab bo'lishi mumkin.

Suitsidga sabab bo'luvchi asosiy ijtimoiy omillar:

- \* parasuitsid (avval amalga oshmagan suitsid ta'sirida ikkilamchi suitsidni amalga oshirish);
  - \* suitsidal tahdidlar ta'siriga tushish;
  - \* oilada suitsid holati qayd etilganlar; autoagressiya;
  - \* alkogolli ichimliklarni iste'mol qiluvchi shaxslar (jami suitsidlarning 30 foizi);
    - \* narkogen va toksik moddalarni iste'mol qiluvchilar (Alkogol va narkogen moddalarni surunkali iste'mol qilish depressiya, tushkunlik, o'zini gunohkor his etish kayfiyatini keltirib chiqaradi, yashashga bo'lgan motivatsiyani pasaytiradi);
    - \* og'ir depressiyaga chalinganlar; xronik va letal oqibatli (tuzalishiga umid yoq bo'lgan holatlarda) kasalliklar;
    - \* og'ir yuqotishlarni (o'z yaqinidan, yaxshi ko'rganidan maxrum bo'lish va x.o) boshidan kechirganlar; oiladagi turli muammolar (zo'ravonliklar, mojarolar, ajralishlar va x.);
    - \* o'smirlar suiqasdi deb ataladigan holat yoki tibbiyot tili bilan aytganda, jinsiy balog'at davridagi suitsid.

**Suisidning oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlar.** Suitsidga eltuvchi psixologik va itimoiy aspektlarni bilish, ushbu yo'nalishda profilaktik va preventiv (lotincha «rgayeueshge» — oldini olish) tadbirlarni to'g'ri tashkil etish uni oldini olishga yordam beradi. O'z joniga qasd qilish to'satdan yuz bermaydi: suitsidga moyil o'quvchilar atrofdagilarni o'z niyatidan ancha ochiq ogohdantirishadi va tegishli choralarни ko'rish uchun ko'p imkoyiyat qoldirishadi. O'z joniga qasd qilish holatlarining oldini olish uchun ta'lim muassasalarida quyidagi strategik profilaktik tadbirlar amalga oshirilishi zarur:

- ▶ shaxsiyatida buzilish bo'lgan o'quvchilarni o'z vaqtida aniqlash va ularni psixologik yordam bilan ta'minlash;
- ▶ bolalar va o'smirlarni tushunish, yordam ko'rsatish, ruhiy iztiroblarni yengillatishga sidqidildan harakat qilgan holda ular bilan samimiy suhabatlar o'tkazish;
- ▶ kuzatuvchan bo'lish va suitsidga oid niyat, gap-so'zlar va xulq-atvordagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash;

- darslarni yomon o'zlashtiradigan o'quvchilarga o'qishda yordam ko'rsatish;
- davomat va darq qoldirishlarni nazorat qilish;
- o'z joniga qasd qilishga sabab bo'ladigan vositalar zaharli moddalar, xavfli dori-darmonlar, xavfli qurollardan foydalaaishni cheklash bo'yicha tadbirlarni o'tkazish;
- o'qituvchilar va mакtabning boshqa xodimlariga yosh joylarida stressni yengishda ko'mak ko'rsatish;
- ruhiy kasallikka chalingan, spirtli ichimlik ni giyohvand moddalarni iste'mol qilgan ovquvchilarni o'z vaqtida davolanishga yo'llash.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, psixoprofilatik tadbirlarni amalga oshirish bir qator omillarga bog'liq bo'lib, aniq yechimi mavjud emas, favqulodda murakkab vazifa - bu o'smirlarning suitsidal xavf darajasini aniqlashdir. Mutaxassislarning fikricha, suitsid xavfining individual - psixologik omillarini quyidagi xususiyatlar tashkil etadi:

-oilaviy tarbiya sharoitlari (ilk bolalikda otasining yo'qligi, oilada matriarxal uslubdagi munosabatlar, ichkilikboz, ruhiy kasal a'zolari bor oilada tarbiyalanganlik, o'smirga nisbatan haddan ziyod cheklashlar yoki kuchli nazorat uning fikri bilan ota-onaning hisoblashmasligi, bolalikda boshidan kechirgan kuchli ruhiy zo'riqish: kuchli qo'rquv, ruhiy yoki jismoniy jarohatlar, o'zgalar tomonidan inkor etilish, yaqinlari tomonidan o'z joniga suiqasd qilish sodir etilgan oilada tarbiyalanganlik va sh.k.);

-o'smirning ta'lif muassasi, oila tarbiyaviy ta'sirlariga befarq munosabatda bo'lishi;

-takroriy suitsidal harakatlarni sodir etish;

-xulqiy og'ishlar;

-ijtimoiy mavqening yo'qotilishi, ijtimoiy muhitdan ajralib qolish;

-muqaddas sevgi munosabatlarining uzilishi;

-o'smir qiziqishlari, ehtiyojlari inobatga olinmagan holda unga nisbatan o'tkazilgan "bosim" (kiyinishda, do'st tanlashda, mакtabdan keyingi ta'lif muassasaini tanlashda) tayziq;

-jinoiy jazolanadigan harakatlarni sodir etish;

-uzoq muddatli somatik kasalliklar;

-faoliyatga moslashuvdag'i qiyinchiliklar va boshqalar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi vaqtda jamiyatimiz taraqqiyotida, mustaqilligimizning istiqboliga iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ichki va tashki omillarning tahdid solmasligi uchun oilalar mustahkamligini ta'minlash zarurdir. Bu masalaning to'g'ri hal etilishining asosiy yo'llardan biri yoshlarni oilaviy xayotga tayyorlash, oilalar

mustahkamligini saqlab qolishdir. Buning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida jamiyatimizning har bir fuqarosi, pedagoglar va ota-onalar ham birdek mas'uldirlar.

Bolalarning yosh xususiyatlarini mukammal bilish, yosh imkoniyatlardan kelib chiqib yondoshishi pedagogik jarayonni samarali tashkil etishga imkon beradi. Turli yoshdagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini bilish, ularga individual yondashish, har bir bolada shaxsni ko'ra bilish, uni hurmat qilish hamda tan olish orqali o'quv tarbiya ishlarini rejalashtirish va olib borish bugungi kun o'qituvchisining asosiy ish mazmunini va mohiyatini tashkil etishi shart.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Амбрумова А. Г., Бородин С. В., Михлин А. С. Предупреждение самоубийств. — М., 1980. -105 с.
2. Ефремов В.С. Основы суицидологии. – СПб., 2004.-479 с
3. Маслоу А. Мотивация и личность. /Пер. с англ. - СПб: изд-во Питер, 2008. – 352 с.
4. Мартыненко А. В. Суицид в молодежной среде // Знание. Понимание. Умение. — 2005. — № 1. — С. 139-141.
5. Каршибоева Г.А. Особенности суицидального поведение в подростковом возрасте. Журнал «Молодой учёный», 2015 йил №7 (1)-87, 663-665 с
6. Каршибоева Г.А. Суицидальное поведение — сложное социально-психологическое явление. Международной научной конференции «Психологические науки: теория и практика», Москва, июнь 2015 г. 37-39 ст.
7. Каршибаева, Г. А., О. Э. Эшмуратов, (2018). Факторы суицидального поведения, влияющие на формирование подросткового поведения. Молодой ученый, (49), 235-237.
8. Каршибаева, Г. А. Особенности суицидального поведения в подростковом возрасте. Молодой ученый, (7), 663-665.
9. Каршибаева, Г. А. Суицидальное поведение-сложное социально-психологическое явление. In Психологические науки: теория и практика (pp. 37-39).
10. Каршибаева, Г.А., Н.Абдукадырова, Психологические особенности педагогических конфликтов. In Психология: традиции и инновации (pp. 65- 68).

11. Каршибаева, Г.А. Психопрофилактические меры по предотвращению самоубийств у подростков. Молодой ученый, (49), 233-235.
12. Каршибаева, Г.А. Теоретическая основа проблемы психологических особенностей подростков с суицидальным поведением. Молодой ученый, (49), 230-233.
13. Каршибаева, Г.А., Норбекова, Б.Ш., &Туракулов, А.Т. Суицид - это не просто способ обратить на себя внимание. European journal of education and applied psychology, (2).
14. Каршибаева, Г. А. Самоубийство в ряду других социальных явлений. Молодой ученый, (5), 581-584. 2
15. Qodirova, M. (2020). Voyaga yetmagan o'smirlar xulq atvorini shakllantirishda olib boriladigan ishlar mazmuni. Архив Научных Публикаций JSPI.
16. Qodirova, M. (2020). Особенности периода взросления подростка. Архив Научных Публикаций JSPI.
17. Qodirova, M. (2020). Shaxsning ichki konfliktlari va mexanizmlari. Архив Научных Публикаций JSPI.